

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

UMAROV IBROHIM SULTON O'G'LI

**TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING
PEDAGOGIK SHAROITLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH
(Kredit-modul tizimi misolida)**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Umarov Ibrohim Sulton o‘g‘li

Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini
raqamlashtirish asosida takomillashtirish (kredit-modul tizimi misolida)3

Умаров Иброхим Султон угли

Совершенствование педагогических условий организации самостоятельного
обучения студентов на основе цифровизации (на примере кредитно-
модульной системы).....23

Umarov Ibrokhim

Improving the pedagogical conditions for organizing students’ independent learning
based on digitalization (on the example of a credit-modular system)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....49

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

UMAROV IBROHIM SULTON O'G'LI

**TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING
PEDAGOGIK SHAROITLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH
(Kredit-modul tizimi misolida)**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8920 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashov Yoqubjon Suvonovich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibraymov Askar Esbosinovich,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "41" 06 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy) Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20, info@bimm.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 20 25 yil "22" may da tarqatildi.
(2025 yil "22" 05 dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

N.K.Haqnazarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli sohalarda raqamlashtirish jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimi ham bunday sohalar qatorida bo'lib, o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning ushbu jarayonida faol qatnashishlari, mustaqil bilim olishlariga keng imkoniyatlar mavjud. Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarning zamonaviy bilim va malakalarga ega, mustaqil bo'lishlari, ularning o'quv tayyorgarliklarini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonini shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga moslashtirish, talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanishlarida pedagogik sharoitlarni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning "Future of Education and skills 2030"¹ tashabbusida 2030-yilgacha ta'lim va ko'nikmalarni raqamlashtirish orqali mehnat bozoriga malakali kadrlarni tayyorlash belgilanganidan ham anglash mumkin.

Dunyoda ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyati, turli muammolarni hal etishga ijodiy yondashadigan va bilimlarini butun kasbiy faoliyatida ham mustaqil oshirib va sohaga doir yangiliklarni o'zlashtirib boradigan yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun innovatsion usul va vositalarni ishlab chiqishga oid bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar ta'lim jarayoni yangi shakllarida kengroq namoyon bo'lmoqda. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish orqali takomillashtirish bugungi kunda dunyo bo'ylab jadal rivojlanayotgan va o'quv jarayonlarini zamonaviylashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, AQSh, Yevropa, Koreya, Yaponiya va Avstraliya kabi rivojlangan davlatlar bu borada ilg'or amaliyotlarni joriy qilishda yetakchilik qilmoqda. AQShda Canvas, Blackboard, Coursera, edX, Udemy kabi ochiq onlayn platfromalari orqali talabalar mustaqil ta'lim olish imkoniga ega. Yevropada Moodle, OpenClass va Blackboard kabi platformalar keng qo'llaniladi. Janubiy koreyada K-MOOC, Yaponiyada JMOOC platformasi orqali talabalar turli kurslarga yozilishlari va mustaqil ta'lim olishlari mumkin. Germaniyada Moodle va ILIAS kabi platformalar qo'llaniladi. Ushbu platformalar talabalarga masofaviy ta'lim olish va o'z kreditlarini boshqarish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda. Ta'limning shakllari ko'paymoqda, ta'lim berish jarayonini tashkil etishning yangi ko'rinishlari kirib kelmoqda. Hozirda oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etilayotgan kredit modul tizimi shu jumladandir. Mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni

¹ <https://www.oecd.org/en/about/projects/future-of-education-and-skills-2030.html>

zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan tadqiqotlar U.Begimkulov², A.Abduqodirov, F.Zakirova, M.Fayziyeva, S.Dottoyevlarning ishlarida, kredit-modul tizimining mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoniga joriy etilishi va bunda mustaqil ta'limning tutgan o'rni yuzasidan tadqiqotlar N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov, Sh.I.Yo'ldoshev, D.R.Karimova, N.O.Jo'rayeva, G.M.Musaxonova, R.R.Xusainov, G.N.Ibragimova, N.Suyunov, A.A.Umarov, Sh.To'rayev, D.Axmedova va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirish masalalarini J.Janabergenova, O.V.Akulova, N.E.Trubina, V.A.Kozirev, A.P.Tryapitsin, E.V.Baranova, O.Yu.Dyatlova, L.A.Kozub, talabaning mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda ta'limni tashkil etishning kredit-modulli tizimining pedagogik salohiyati masalalarini P.I.Pidkasistiy, I.Ya.Lerner, M.Skatkin, B.P.Esipov, Y.Ya.Golant, A. N. Leontev, A.V.Usovalar tadqiq etishgan.

² U.Sh.Begimkulov. Pedagogik ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. diss. – T.: 2007. –B. 305.

Xorijda raqamli ta'minot asosida kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim jarayoni mazmunini o'z ichiga olgan tadqiqotlar E.Kurti, N.Dong, Z.Chen, A.Seldon, O.Abidoye, R.Choudaha, Li Chang, Yoko Kono, Emad Nosair, Hossam Hamdy, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish jihatlari to'g'risidagi tadqiqotlar V.N.Klepikov, M.Greek, K.M.Jonsmoen, John Biggs va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Nazariy manbalar tahlili mamlakatimiz va xorijda kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo raqamli jamiyatning jadal rivojlanishi, uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarning mustaqil ta'lim olish jarayonini rivojlantirish pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi, bir qator yechimi kutayotgan muammolar manbai bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022-2024 yy. IL-4821091576) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili asosida o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish komponentlarini aniqlashtirish;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish orqali takomillashtirish maqsadida raqamli ta'minot tarkibi va platformasini ishlab chiqish;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida raqamli ta'minot asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasasida kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyati pedagogik sharoitlarini yaratish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan 321 nafar talabalar bilan olib borildi.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasasida kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlari, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarning yechimini topish uchun umumilmiy (tarixiy, biografik, kontent-tahlil), pedagogik kuzatish, sotsiometrik (test, elektron so'rov, suhbat), modellashtirish

(loyihalash), hamda matematik statistik hisob kitoblarni amalga oshiruvchi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalar mustaqil ta'limini kredit-modul tizimida tashkil etishning didaktik-kommunikatsion, pedagogik-motivatsion, tashkiliy-texnologik va integratsion komponentlari raqamli texnologiyalar muhitida sun'iy intellekt (AI), ma'lumotlar tahlili (DA), adaptiv ta'lim (AL) tizimlarini ta'lim jarayonini strategik implementatsiya qilish asosida aniqlashtirilgan;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalarning mustaqil ta'limi mazmuni shaxsga yo'naltirilgan, raqamli pedagogika vositalari, no-code texnologiyalar, sun'iy intellektning ilg'or modellariga asoslangan neyron tarmoqlarning moslashtirilgan (fine-tuning) algoritmlari kabi innovatsion didaktik resurslardan kompleks foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirish mexanizmlarini mujassamlashtirgan raqamli ta'minot asosida ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olish metodikasi individual ta'lim strategiyasining adekvatligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan mikroo'qitish (micro learning), o'z sur'atida ta'lim olish (self-paced learning), bulutli texnologiyalarga asoslangan o'qitish (cloud-based learning) hamda sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan chatbot yordamchi texnologiyalarini kredit-modul tizimi o'quv jarayoniga uyg'unlashtirish va uning raqamli ta'minotini shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning individual ta'lim olish samaradorligini baholash mezonlari ularning kognitiv bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarining baholash mezonlari (motivatsion, kognitiv, konativ, refleksiv) va darajalari (ijodkor, mustaqil fikrlovchi, amaliyotchi va takrorlovchi) ni kompleks diagnostik vositalarning dinamik monitoring imkoniyatlari validligini ta'minlash asosida tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirishga mo'ljallangan "Talabalar mustaqil ta'lim platformasi – mustaqiltalim.uz" (*№DGU 36812*) raqamli ta'minot ishlab chiqildi;

OTMlarda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning mavjud muammolarini bartaraf etish hamda talabalarga mustaqil ta'lim bo'yicha bilimlarini oshirish maqsadida "Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish" (*№2024/214U-282*) nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plami, ommaviy axborot vositalari ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar va ular haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, intervyular, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun tashkil etiladigan mustaqil ta'lim darslarining natijadorligini oshirishning mazmuni, bosqichlari, shakl, metod va vositalarining aniqlashtirilganligi, mustaqil ta'lim jarayonlarida pedagogik sharoitlarning takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oliy ta'lim muassasalari talabalarini mustaqil ta'lim jarayonida foydalanishga mo'ljallangan raqamli ta'minotning yo'nalish malaka talablari asosida tavsiya etilgan bilimlar majmuasi bilan boyitilgan holda ishlab chiqilganligi hamda foydalanish tavsiya etilganligi va ilg'or ta'lim texnologiyalarini mustaqil ta'lim jarayoniga tatbiq etishga xizmat qilishi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning xorijiy tajribalariga asosan mustaqil ta'limning asosiy tizimli komponentlari didaktik-kommunikatsion, pedagogik-motivatsion, tashkiliy-texnologik va raqamli integratsion komponentlari ta'lim muhitini raqamli tendensiyalariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish orqali takomillashtirish maqsadida o'qituvchi va talabalar uchun alohida interfeysga ega, mustaqil ta'lim resurslari bilan boyitilgan, no code texnologiyalari va neyron tarmoq algoritmlaridan foydalangan holda raqamli ta'minot "Talabalar mustaqil ta'lim platformasi – mustaqil.uz" ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan (Intellektual mulk agentligi tomonidan №DGU 36812 raqamli guvohnoma berilgan). Natijada raqamli ta'minotdan foydalangan holda talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish takomillashtirilgan;

kredit-modul tizimi o'quv jarayonida raqamli ta'minot asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olish metodikasini individual ta'lim modelining micro learning, self paced learning, cloud based learning, personal chatbotlar texnologiyalarini qo'llash orqali takomillashtirilgan hamda "Kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish" nomli o'quv qo'llanma (№2024/214U-282) ishlab chiqilgan, shuningdek mazkur raqamli ta'minot, o'quv qo'llanmadan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Qo'qon davlat pedagogika instituti o'quv jarayonida qo'llanilgan va kredit-modul tizimida individual ta'lim texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilar uchun alohida interfeysga ega raqamli texnologiyalarga asoslangan holda o'quv jarayonini tashkil etishda foydalanilgan (OTFIVning 2024-yil 3-oktabedagi 4/17-4/4-01-402-son xati). Natijada talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida

takomillashtirishga erishilgan;

kredit-modul tizimida individual ta'lim texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar uchun alohida interfeysga ega masofaviy texnologiyalarga asoslangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalaridan "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022-2024 y.y., IL-4821091576) O'zbekiston-Belorus hamkorligi doirasida bajarilgan amaliy loyihada doirasida foydalanilgan. Natijada raqamli ta'minot ishlab chiqilishi orqali mustaqil ta'lim jarayonida pedagogik sharoitni takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 144 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili, respublika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish komponentlari ochib berilgan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida dunyo hamjamiyatida kredit-modul tizimini joriy etishning mavjud holati bu orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish, kredit-modul tizimi o'quv jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi muhim omili ekanligi, kredit-modul tizimi

o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishiga doir tavsilotlar keltirib o'tildi.

Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat: Kredit-modul tizimiga mos o'quv dasturlarini mustaqil ta'limni tashkil etish talablarini takomillashtirish; pedagog kadrlar malaka oshirish kurslariga kredit-modul tizimi asosida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha modullar kiritish; mustaqil ta'limni tashkil etishga doir raqamli kutubxonalar yaratish; baholash tizimini isloh qilish; vaziyatga asoslangan ta'limni joriy qilish.

Tadqiqot davomida xorijiy ta'lim muassasalari faoliyati tahlilidan kelib chiqib kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirishning komponentlari aniqlashtirildi (1-rasm).



1-rasm. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini raqamlashtirish asosida tashkil etish komponentlari

1. Didaktik-kommunikatsion komponent talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishda didaktik vositalar orqali modul asosida tuzilgan o'quv dasturlari, raqamli resurslar va jarayonni boshqarishni qamrab oladi. 2. Pedagogik-motivatsion komponent talabalarni mustaqil ta'limga jalb qilish va ularda yuqori motivatsiya shakllantirishga (talabaning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv jarayonlari, mustaqil ta'lim uchun individual o'quv materiallarini tanlash) qaratilgan. 3. Tashkiliy-texnologik komponent o'quv jarayonini raqamlashtirish asosida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan texnologiyalar (baholash va monitoring tizimlari) va infratuzilma (raqamli platforma)ni qamrab oladi. 4. Integratsion komponent barcha boshqa komponentlarni yagona raqamli tizimda birlashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Ushbu komponentlar raqamlashtirish vositalari bilan mustahkamlangan holda,

talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondiradi. Chunki ularning o'zaro integratsiyalashuvi ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishga va talabalarning bilim olish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga maqsadli tayyorlashning individual ta'lim strategiyasini loyihalash o'rni va rolini aniqlash hamda didaktik jarayonini sifatli va samarali tashkil etish va o'tkazish talabaning mustaqil faoliyati bilan muttasil bog'liq ekanligi keltirib o'tildi.


Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda, uning axborot ta'minotni yaratishda axborot resurslarning" tizimli birlashuvini ta'minlovchi platformani ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ilmiy adabiyotlar hamda xorijiy manbaalar "ma'lumotlarini tahlil qilgan holda aynan raqamlashtirilgan ta'lim platformasi asosida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga erishish mumkin degan hulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **"Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning raqamli metodik ta'minoti"** deb nomlangan ikkinchi bobida kredit-modul tizimi o'quv jarayonining raqamli metodik ta'minoti tarkibi, mazmuni, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish modeli va uni amalga oshirish texnologiyalari, shuningdek, ushbu tizim asosida mustaqil ta'limni tashkil etish metodlari ochib berilgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayonlarini takomillashtirish, integrallashtirish axborot-metodik ta'minotni yaratish, mustaqil ta'lim jarayonini axborot resurslar bilan boyitish maqsadida Internet tarmog'ida mustaqilitalim.uz platformasi yaratildi.

mustaqilitalim.uz – mustaqil ta'lim platformasi oliy ta'lim muassasalari talabalarini hamda pedagoglarining o'zaro aloqasini ta'minlovchi, turli axborot resurslariga kirish imkoniyatini beruvchi, axborot va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishuvchi sifatida axborot-ta'lim sharoitlarining ochiq tizimini yaratadi. Ushbu raqamli ta'minotdan foydalanib talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish vazifasi bo'yicha o'qituvchi va talabalar uchun raqamlashtirilgan ta'lim muhitini ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Raqamlashtirilgan muhitda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish uchun barcha sharoitlar, ya'ni, elektron resurslar, videoma'ruzalar, forumlar, qayta aloqa (feedback), ta'lim jarayonini monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot muammosining nazariy va amaliy g'oyalaridan kelib chiqib kredit-modul tizimi o'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uchun qo'llaniluvchi raqamli ta'minotning tarkibi, mazmuni ishlab chiqildi. Ko'p funksiyali raqamli ta'minotning tuzilishi texnologik prinsiplarga muvofiq (modullilik, ko'p darajalilik, media-resurslilik, uzatuvchanlik, integrativlik) ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ta'limini raqamlashtirish asosida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang). Model maqsadli, jarayon va natija bloklardan tashkil topgan.



2-rasm. Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini raqamlashtirish asosida takomillashtirish modeli

Maqsadli blok kredit modul tizimida o'quv jarayonida talabalarni mustaqil ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy buyurtma sifatida OTM bituruvchisiga qo'yilgan malaka talablari keltirib o'tilgan.

Jarayon bloki oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari, kredit-modul tizimida pedagogik jarayon tuzilishi o'z aksini topgan bo'lib, bunda pedagogik jarayon talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning didaktik-kommunikatsion, pedagogik-motivatsion, tashkiliy-texnologik va integratsion komponentlari keltirilgan. Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalari ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim mazmuni OTM talabalarini mustaqil ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatida belgilandi.

Individual ta'limning to'rtta asosiy tamoyili aniqlandi: 1. Mustaqil ta'limga yo'naltirilganlik – talabalar barcha tushunchalarni o'zlashtirish uchun topshiriqlarni mustaqil bajarishlari kerak. 2. Doimiy assesmentni amalga oshirish – har bir bo'lim oxirida talaba modulni o'zlashtirganligini aniqlash uchun baholash o'tkazilishi kerak. 3. Moslashuvchan ta'lim kontentlari talabalarga yozma hamda raqamli materiallardan foydalanish. 4. Ijtimoiy-kommunikativ munosabatlari o'qituvchilar talabalarni doimiy qo'llab-quvvatlashlari va o'quv jarayoniga ijtimoiy elementlarni kiritib boradilar.

Kredit-modul tizimining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi uning talabalarga individual yondashuviga, ularning mustaqilligiga asoslanganidir. Shuni inobatga olgan holda individual ta'lim metodlaridan foydalangan holda talabalar mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etishning shakl, metod va vositalarini ham belgilab olindi.

Individuallashtirilgan mustaqil ta'lim materiallari – o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda, istalgan vatqda hamda istalgan joyda ta'lim olish imkonini beradi. Mazkur resurslar keng doiradagi mavzular va bilim sohalarini qamrab olishi mumkin. Jumladan, kredit-modul tizimi o'quv jarayoni uchun ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlardagi talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga doir mavzularni joylashtirish imkoni mavjud.

Ta'lim oluvchi: ta'lim dasturlari asosida mustaqil ta'lim mavzularini o'qishi, mavzuga oid forumlarda ishtirok etishi; o'quv resurslari, uslubiy tavsiyalar va raqamli manbalardan foydalanib mustaqil o'rganishi; olingan bilimlarini mavzuga oid testlar va individual topshiriqlar orqali mustahkamlashlari keltirib o'tilgan

Ta'lim beruvchi: dars jarayonida berilgan ma'lumotlarni, darsdan tashqari vaqtda ham platforma orqali berishi; kredit-modul tizimi o'quv jarayonida o'quv reja asosida belgilangan mavzular bo'yicha videokontent tayyorlab talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda foydalanishi mumkin. Self-paced learning – talabaga kurs materiallarini o'z sur'ati va sharoitiga mos ravishda o'zlashtirish imkonini beruvchi ta'lim usuli. Ushbu yondashuvda talaba o'qituvchining bo'sh vaqtiga emas, balki o'z ehtiyojlari va vaqt imkoniyatlariga asoslanadi. Mazkur metodning asosiy xususiyatlariga talaba har bir mavzuni o'z tezligida o'zlashtirishi, murakkab mavzularga ko'proq vaqt ajratishi, o'z maqsadlariga erishishini kuzatib borishi, o'z ta'lim jarayonini boshqarishi (erkinlik) kiradi. O'qituvchi mazkur jarayonda talabalar uchun maqsadlar belgilashga ko'maklashadi, o'qituvchi rolidan

mentor roliga o'tadi, ya'ni, o'z vaqtida talabalar bilan maslahatlashish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun masofaviy kommunikatsiya vositalari orqali yordam ko'rsatadi. Talabani mustaqil ta'lim olish faoliyatini kuzatadi. Platforma esa bu yerda vosita vazifasini bajaradi, ya'ni, o'qituvchi va talaba o'zaro muloqot olib borishi, maslahatlashishi uchun, o'qituvchining talaba o'zlashtirishi yuzasidan analitik ma'lumotlarni olishi uchun vosita hisoblanadi. Micro learning texnologiyasi bu – o'quv materialini kichik bloklarda yetkazib berish va har bir blokni mikrovazifalar bilan darhol mustahkamlashdir, shuningdek, talabani bilim olish jarayonini tezlashtiradigan ta'lim usuli. Ushbu usulning maqsadi talabalarning diqqat-e'tiborini qisqa vaqt davomida maksimal darajada ushlab turish va ularni qiziqtirgan ma'lumotlarni tez o'zlashtirishga yordam berishdir. Cloud-Based Learning (Bulutli ta'lim) – bu ta'lim materiallari, resurslari va xizmatlarini bulutli saqlash texnologiyalari yordamida talabalar va o'qituvchilarga taqdim etish usuli. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini moslashuvchan, istalgan joydan kirish mumkin va resurslar bilan samarali boshqariladigan shaklga olib keladi. Ta'lim resurslari (kitoblar, video darslar, testlar) bulutli saqlash platformalarida joylashtiriladi. Masalan: Google Drive, Microsoft OneDrive, Dropbox yoki Amazon Web Services (AWS). Talabalar va o'qituvchilar har qanday joyda, istalgan qurilmadan (kompyuter, planshet, smartfon) ta'lim resurslariga kirish imkoniga ega bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchilar materiallarni ko'rishi, tahrirlashi yoki baham ko'rishi mumkin. Guruhlar birgalikda loyihalar ustida ishlashi mumkin bo'ladi. Bulutli texnologiyalar kuchli xavfsizlik tizimlari yordamida saqlangan ma'lumotlarni himoya qiladi. Shaxsiy chat-botlar – bu so'nggi yillarda onlayn ta'limda joriy etila boshlangan eng yangi texnologiya. Bu texnologiya har doim hamma talabalarning yonida bo'lgan mobil qurilmalar orqali ta'lim olishlariga yordam beradi. U orqali talaba mustaqil ravishda bilim darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shaxsiy chat-bot texnologiyasi – bu talabalar bilan o'zaro aloqani avtomatlashtiruvchi va ular uchun shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etuvchi dasturiy tizim. Chat-bot talabalar bilan matnli yoki ovozli suhbatlar orqali muloqot qilib, savollarga javob beradi, vazifalarni taqdim etadi va ularning o'quv jarayonini kuzatadi. Bunda platformadagi kurs haqidagi ma'lumotlar va ko'p so'raladigan savollar (FAQ)dan tuzilgan ma'lumotlar bilan boyitilgan sun'iy intellekt tizimida AI assistent yaratildi va raqamli ta'minotga integratsiya qilindi. Natijada talabalar mustaqil ta'lim jarayonida savollar tug'lsa yoki ma'lumotlar zarur bo'lsa, sun'iy intellekt asosidagi avtomatik generatsiya qilingan javoblar va ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur texnologiyalarni amalga oshirishda texnik qurilmalardan kompyuter, proyektor, dasturiy vositalar sifatida hamda yakka va guruhli muloqotlarda raqamli ta'minot, messenjer, chatbot, videokonferensiya, forumlar kabilardan foydalanildi.

Auditoriya mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan talabalarga raqamlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berildi. Auditoriyadan tashqarida esa talabalar mustaqil ravishda raqamlashtirilgan ta'lim muhitidan foydalanishdi. Talabalar auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim olishlari uchun dars yuzasidan videoma'ruzalar, topshiriqlar, elektron resurslar

ishlab chiqildi. Ma'lumotlarni olgan talabalar ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish orqali tayyorgarlik ko'rishdi. Shuningdek o'qituvchi tomonidan mustaqil ta'lim mavzulari yuzasidan forumlar, videokonferensiyalar, chatlar tashkil etildi. Shundan so'ng talabalar faolligi hamda ularning berilgan topshiriqlarni bajarishiga, fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlariga qarab baholandi.

Natijaviy blok esa raqamli muhitda baholash mezonlari va baholash darajalaridan foydalanish orqali talabalar mustaqil ta'limi motivatsion, kognitiv, konativ, refleksiv mezonlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarligi baholanadi.

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirishda ta'lim jarayoniga ta'lim oluvchining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashuvchan ta'lim vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda shu sohada tayyorlanayotgan kadrlarning ichki va tashqi mehnat bozori talablariga javob beradigan bo'lib kamol topishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning axborot va metodik ta'minotini joriy etish”** nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni hamda natijalari va tahlili yoritib berildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari uch bosqichda 2021-2022, 2022-2023, 2023-2024 yillarda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti talabalari ishtirokida olib borildi.

Birinchi bosqich – qidiruv-nazariy, aniqlash, tahliliy bosqich bo'lib (2021-2022-yillar) - tadqiqot mavzusining dolzarbligini aniqlash, raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish muammosining hozirgi holatini o'rganish, ushbu muhitda talabalar mustaqil ta'limining pedagogik sharoitlari va texnologiyalarini tahlil qilishdan iborat edi. Shu munosabat bilan psixologik-pedagogik, uslubiy, texnik adabiyotlar, shuningdek, ushbu muammo bo'yicha o'quv dasturlari va qo'llanmalar o'rganildi hamda tahlil qilindi. Qidiruv-nazariy bosqich natijalari tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslashga imkon berdi. Kredit modul tizimi o'quv jarayonida AKT vositalaridan foydalangan holda samarali mustaqil ishlarni tashkil etishda ta'lim amaliyotining ehtiyojlari va ushbu faoliyat nazariyasi va amaliyotining rivojlanish holati o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosi, muammoning holatini tahlil qilish asosida alohida nizomlar belgilandi va nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi, tadqiqot gipotezasi shakllantirildi, mustaqil ta'limni tashkillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik shartlari aniqlandi va komponentlar aniqlashtirildi, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan raqamlashtirilgan ta'lim muhiti arxitekturasini ishlab chiqildi, pedagogik eksperimentning ushbu bosqichi natijalari tadqiqot gipotezasini aniqlashtirishga, AKTdan foydalangan holda mustaqil ta'limni tashkil etishning ilmiy, uslubiy va didaktik bazasini tayyorlashga imkon berdi. Ikkinchi bosqich – shakllantiruvchi bo'lib (2022-2023), bu bosqichda kredit-modul tizimi bo'yicha xorijiy tajribalar orqali aniqlangan komponentlar asosida, raqamli metodik ta'minot ishlab chiqildi. Shuningdek, raqamli metodik ta'minot elektron o'quv resurslari, mustaqil ta'lim materiallari bilan boyitildi. Raqamli metodik ta'minot yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi. Modelni

